

XAN IMPERIYASI DAVRIDA QADIMGI XITOIY

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Ziyoratova Sabrina Ravzatillo qizi

sabrinaziyoratova@gmail.com

Tel: +998945178566

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Choriyeva Muhlisa Karim qizi

muhlisachoriyeva6@gmail.com

Tel: +998953398005

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan qadimgi Xitoy davlatining Xan imperiyasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, xo‘jalik hayoti haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek Xan Imperiyas davridai Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalari va olib borilgan harbiy yurishlari, bu yurishlar davomida egallangan hududlar va bu hududlarda olib borilgan siyosat to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar. Xan imperiyasi, U-Di, Sariq ro‘mollilar qo‘zg‘oloni, Xunlar, Buyuk ipak yo‘li, Chjan Syan, Lyu Ban.

Аннотация: В данной статье в основном представлены сведения о социально-экономической, политической, культурной и экономической жизни древнего китайского государства в период империи Хань. Здесь также представлена полная информация о внешнеэкономических связях и военных кампаниях Китая во времена империи Хань, территориях, завоеванных в ходе этих кампаний, и политике, проводимой на этих территориях.

Ключевые слова. Империя Хань, У-ди, Восстание жёлтых шарфов, Хунны, Великий шелковый путь, Чжан Сян, Лю Бань.

Abstract. This article mainly provides information about the socio-economic, political, cultural, and economic life of the ancient Chinese state during the Han Empire. It also provides complete information about China's foreign economic relations and military campaigns during the Han Empire, the territories conquered during these campaigns, and the policies conducted in these territories.

Keywords. Han Empire, Wu-Di, Yellow Scarf Rebellion, Huns, Great Silk Road, Zhang Xiang, Liu Ban.

Mil. avv 203- yilda sin sulolasi xalq qo‘zg‘olonlari natijasida kuchsizlanadi. Gaysya yonidagi jangda Lyu Ban qo‘shini Chu sulolasidan bo‘lgan Syan Yuyni jangda yengadi. Bir yildan so‘ng Sin davlati o‘rnida Xan saltanati tuziladi. Xan imperiyasining ,uning tarkib topgan kunidan boshlab, eng muhim tashqi siyosiy vazifasi chegaralarni ko‘chmanchi syunnu(xunn) qabilalarining muntazam

bosqinlaridan himoya qilish edi. Mil .avv III asrning oxiriga kelib imperiyaning shimoliy chegaralaridan ushbu qabilalarning qudratli birlashmasi vujudga keldi." Tinchlik va qarindoshchilikka asoslangan shartnoma" deb ma'lum bo'lgan va mil.avv.198 - yilda tuzilgan shartnomaga binoan Lyu Ban Shanyuy (syunnu qabilalarining oliy sardori) Modega nisbatan o'lpon to'lovchi ekanligini faktik jihatdan tan oladi.[1].Mil .avv.195- yilda Lyu Banning o'limidan so'ng, taxtga uning o'g'li Xuey- di o'tqaziladi. Ammo mamlakatni amalda malika Lyuy- xou va uning qarindoshlari boshqaradi. Imperator esa sharobxo'rlikva ayshu- ishratga berilib, davlatni deyarli idora qilmaydi. Xan podshosi Szi- di davrida yetti hokimlikning birlashgan 200 minglik qo'shini saltanat poytaxti Sanyanga hujum boshlaydi. Ammo " Yetti hokim" lar amaldorlarni ishdan olib, mustaqil qo'shin tutishdan mahrum etadi." Buyuk ipak yo'li" ning markaziy qismi O'rta Osiyodan o'tgan edi. Bu yo'l O'rta Osiyo xalqlarining jahon xalqlari bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Xan podsholigi tashkil topib, o'zini tiklab olgach, podsholar qo'shni mamlakatlar istilo qilishga kirishganlar. Mil.avv.200- yilda Lyu Ban-Goa- szu o'z qo'shinlari bilan xunlar ustiga bostirib borgan. Uning qo'shinlari xunlardan mag'lubiyatga uchragan. Gao szuning o'zi asirga olinib, asirlikdan mo'jiza tufayli qochib qutulgan. Xan saltanatining eng kuchaygan davri U- Di podsholik qilgan mil .avv 140- 87 - yillardir. Bu davr Xitoy tarixida " oltin asr " nomi bilan mashhurdir. U- Di davrida mahalliy aslzodalarning huquqlari biroz cheklanib, saltanat amaldorlar ustidan nazorat kuchaytirilgan[2]. Mil.avv. 119 - yilda xunlar bilan olib borilgan urush Xan imperiyasi uchun muvaffaqiyatli bo'ldi. Ko'chmanchilar vaqtinchalik bo'lsa- dakuchsizlantirildi. Endi shimoliy Xitoyga xavf soluvchi ko'chmanchi xalqlarning eng kattasi yo'ldan olib tashlangan edi. Xan imperiyasi Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan sharqiy Turkiston o'lkasining shahar - davlatlarida o'z ta'sirini va hukmronligini yoyish uchun turli diplomatik va harbiy usullardan foydalangan. Ushbu siyosatni amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida Xan imperiyasining ustun qabilalari bilan ittifoq tuzishi namoyon bo'ladi. Mil.avv.115- yilda ustunlar huzuriga Chjan Szyan boshchiligidagi elchilik yuboriladi. Ushbu elchilik Xan davridagi Xitoy davlatining Markaziy va O'rta Osiyoning hamda O'rta Sharqning boshqa mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlanishida katta rol o'ynaydi.[3].80- yillarning oxiridan boshlab Buyuk ipak yo'li orqali Kushon davlati, Parfiya Rim imperiyasi bilan savdo- sotiq munosabatlar o'rnatildi. Bu aloqalar milodiy I va II asrlar chegarasida eng yuqori darajaga ko'tariladi. Rim imperiyasi (qadimgi Xitoy manbalarida Dardim deb nomlanadi) bilan to'ridan - to'g'ri aloqa o'rnatishga urinishlar ham qilib ko'riladi. Keyinchalik mamlakat korrupsiya va ichki nizolar tufayli kuchsizlana boshlaydi. So'ngra 184- yili og'ir soliqlar va majburiyatlarga qarshi xalq aka- ukalar Chjan Szyan, Chjan Bao hamda Chjan Lyanlar boshchiligidagi (" Sariq ro'mollilar") qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilarning umumiy soni 300 ming

kishiga yetib, ular 30 dan ortiq guruhlarga bo‘lingan edi. Qo‘zg‘olon 205- yil Xan sarkardalari Dun Chjo va Saosaolar tomonidan qiyinchilik bilan batamom bostirildi. Tez orada Saosao bosh vaziri bo‘lib olgach, imperator hokimiyati nomigagina tan olinadi. U-Di podsholigining oxiri va vafotidan so‘ng saltanat asta-sekin zaiflasha boshlagan. Behisob urushlar, qo‘shimcha soliq va majburiyatlarning barcha og‘irligi dehqonlar qullar va mehnatkash ommaning yelkasiga tushgan edi. Ayniqsa, jon boshi solig‘i oddiy xalq orasida daxshatli voqealarni keltirib chiqargan. Qashshoqlar jon solig‘i miqdorini kamaytirish uchun yosh bolalari, keksa ota, ona, buvi va buvalarini o‘ldira boshlaydilar. Bu davrda qullar ham qattiq sarosimaga solingan. Mil. avv. I asrning ikkinchi yarmida podshohlikda ahvol shunday yomonlashganki, bundan podsho va hukmdor vakillari daxshatga tushadilar. Ular ahvolni yaxshilash uchun mehnatkash aholiga va qullarga yon berib turli islohotlar o‘tkazishga majbur bo‘lganlar. Ammo amalda hech qanday islohotlar o‘tkazilmaydi, davlat esa borgan sari zaiflasha boshlaydi. So‘ngra 220- yil mart oyida bosh vazir Saosao vafotidan so‘ng, Xan imperiyasining so‘nggi imperator Syan- di taxtdan voz kechadi. Hokimiyatga Saosaoning o‘g‘li Sao Pey keladi va o‘zini Vey davlati podshosi deb e‘lon qiladi. Natijada Xitoy uch mustaqil davlatga (Vey ,Shu,U) bo‘linib ketadi.

Kichik Xan podsholigi davrida xo‘jalikning asosini dehqonchilik tashkil etar edi. Dehqonlar omoch, so‘qa, mola, belkuraklardan foydalanib yerga ishlov berganlar. Xuanxe, Yanszi, Sitszyan va ularning irmoqlariga to‘g‘onlar qurib, biz yerlarda kanallar orqali suv chiqarganlar. Xitoy podsholari hamma davrda ham yilqichilikka katta e‘tibor bilan qaraganlar. O‘sha davrda Xitoyda markaziy Osiyoning pakana otlari parvarish qilingan. Xitoyliklar oliy zotli "Osmon otlarini" Parikan Dovondan olib kelishgan. Otlar ko‘proq harbiy maqsadlarda, ba‘zi hollarda esa ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Xan saltanati davrida Xitoyda kulolchilik, miskarlik, temirchilik, duradgorlik, zargarlik, kemasozlik va hunarmandchilikning boshqa sohaları taraqqiy etgan edi. Qog‘oz ishlab chiqarish ham Xitoy hunarmandchiligining eng muhim sohalaridan biri edi. Bu davrda Xitoyda paxta ekilmas edi. Paxta Xitoyga Hindistondan O‘rta Osiyo orqali olib kelingan. [4] Xitoy savdogarlari Hindiston, Arabiston, Afrika hatto O‘rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar bilan qizg‘in savdo olib borganlar. U-Di davrida " Buyuk ipak yo‘li " ga asos solinib, shu yo‘l orqali Xitoy savdogarlari Parfiya, Hindiston va Vizantiya kabi mamlakatlar bilan savdo aloqalar olib borgan. "Buyuk ipak yo‘li" va dengiz yo‘llari Xitoyning tashqi dunyo bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy aloqasida muhim o‘rin tutgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xitoy davlati Xan imperiyasi davrida o‘z qudratining eng cho‘qqisiga erishgan. Bu davrida Xitoyda barcha sohalar shu jumladan madaniyat, savdo, iqtisodiy aloqalar yuksak taraqqiy etgan. Shuningdek mamlakatda jabr zulmlar ham to‘xtamagan bu esa aholi o‘rtasida ko‘plab qo‘zg‘olonlar sodir bo‘lishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Urakov, R.Tursunov, A.Biykuziyev, B.Xaynazarov "Jaxon tarixi" T. 2020. 121-b
2. A. Kabirov " Qadimgi Sharq tarixi " T. 2016. 313-b
3. D.Urakov, R.Tursunov, A.Biykuziyev, B.Xaynazarov "Jaxon tarixi" T. 2020. 123-b
4. A. Kabirov " Qadimgi Sharq tarixi" T. 2016. 320-b

